

## ESHITISHDA NUQSONI BOR BOLALARNI O‘QITISH METODIKASI

**Odiljonova Sarvinoz O‘tkir qizi**

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti talabasi

Elektron pochta manzili: [sarvinozodiljonova6@gmail.com](mailto:sarvinozodiljonova6@gmail.com)

**Annotatsiya:** Kar yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus o‘qitish va ularni tarbiyalash bilan surdopedagogika fani shug‘ullanadi. Kar yoki zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish nazariyasi tarixi, fanlarni o‘qitish, ularning maxsus psixologiyasi, talaffuzni va “lab bilan o‘qish”ni o‘rgatish va ularni mehnatga tayyorlash bu sohaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Fanni o‘rganish orqali zaif eshituvchi bolalarda og‘zaki nutq shakllanib boradi, chunki ularga so‘zlar talaffuz qilinganda nutq organlarining harakati o‘rgatiladi. Nutqni takrorlashga o‘rgangan zaif eshituvchilar gapirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, ular maxsus o‘quv alifbosi-daktilologiyasidan foydalanib gapirishlari ham mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Surdopedagogika, daktilologiya, grammatik qonuniyatlar, “lab bilan o‘qish”, analizator, ovoz kuchaytiruvchi apparaturalar, kompyuter texnologiyalari, multimediali materiallar, O‘zKJ, sematik soha, psixologik portret.

**Abstract:** Surdopedagogy teaches how to educate deaf or hearing-impaired children specifically. The history of educating deaf or hearing-impaired children, teaching subjects, their specific psychology, teaching pronunciation, and “lip-reading” are considered the main purposes of surdopedagogy. By learning the subject, oral speech is formed because, while words are pronounced, movements of the speech organs are taught. As a result, children who learn to repeat the speech can speak. Furthermore, they can speak, using specific alphabet-dactylology.

**Keywords:** Surdopedagogy, dactylology, grammar rules, “lip-reading”, analyzer, sound amplification equipment, computer technology, multimedia materials, Uzbekistan Deaf Society, semantic field, psychological portrait.

**KIRISH:** Sog‘lom bola ilk davrlarda fikrini g‘udurlash, guvranish kabi nutqning eng sodda ko‘rinishlarida ifodalab ko‘rsata olsa, 1 yoshga yetgandan so‘ng ba‘zi so‘zlarni qo‘llay oladi. U so‘z tuzilishi, ularni biriktirish yo‘llari haqida hech qanday ma‘lumotga ega bo‘lmasa ham gapirishni boshlaydi. Biroz katta bo‘lgach murakkab frazeologik birikmalarni va lug‘atlarni ishlata boshlaydi. Tilning ushbu vositalaridan murakkablashib borayotgan bilimlarini boshqalarga yetkazish va insonlar bilan muloqotga kirishish uchun foydalanadi. Tilning fonetik, leksik va grammatik

qonuniyatlarini tushunish uchun yuqori darajadagi eshitish qobiliyati talab qilinadi. Atrofdagilar nutqidan muhim belgilarni ajratib olish, ularni taqqoslash va nutqqa olib kirish sogʻlom bola uchun odatiy hol, ammo eshitish qobiliyatidan mahrum boʻlganlar uchun bu toʻgʻri kelmaydi.

Eshitish idrokining buzilishi oqibatida insonning nutqni egallay olmasligi, shu bois jamiyat aʼzolaridan uzilib qolish, ijtimoiy hayotda oʻz oʻrnini topishdagi qiyinchiliklarga sabab boʻladi. Bular bir-biriga bogʻliq boʻlgan bir nechta sabablarga bogʻliq hisoblanadi va bu xususda L.S.Vigotskiy: “Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoa(kollektiv)dan yakkalanib qolishga, jamoa(kollektiv)dan ajralib qolish esa, oʻz navbatida, ijtimoiy tarbiya hamda nutqning rivojlanishini tormozlaydi”, -deydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:** Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitish qobiliyatidan ajralgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida oʻrgangan olimlardan J.Kardano, V.I.Fleri, Ya.T.Speshnevlar ular orasida maʼlum tarzda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan bolalar borligi, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa eshitishi zaif boʻlgan bolalar nutqining maʼlum qismi shakllanishi haqida qayd etishgan. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofdagi yaqinlari, ayniqsa, onasi gʻamxoʻrlik qilishi kerakligi hamda kar bolaning nutqining rivojlanishi ilk davrlardan, hattoki boshqalar nutqiga taqlid qilgan holda rivojlanishini taʼkidlagan holda “Kar-soqov bola qancha kichik boʻlsa, uning oʻzlashtirish layoqati shuncha yuqori boʻladi”, -deb yozadi olim, shuningdek, baʼzi soʻzlarni bola koʻrish asosida taqlidan oʻzlashtirishi lozimligini alohida qayd etgan.

*Eshitishda nuqsoni boʻlgan maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik jihatdan oʻrganish.*

Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning tekshiruv usullari N.A.Rau tomonidan ishlab chiqilgan. Rau bolalarni eshituv holatiga koʻra ikkita toifaga boʻladi: kar-soqov va zaif eshituvchi bolalar. Rau kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ular nutqini saqlab qolish niyatida labdan oʻqishga oʻrgatish va savodini chiqarish uchun maʼlum korreksionlar kerakligini taʼkidlaydi. Eshitish qobiliyati pasayishining ikki turi farqlanadi, yaʼni kar-soqovlik va zaif eshitish. Zaif eshituvchi bolalarda nutqni idrok qilish va qabul qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ammo, eshitishdan foydalanib cheklangan miqdorda boʻlsa ham soʻz zahirasi toʻplash mumkin. Eshitish holatining pasayishi karlik darajasida boʻlsa, nutqni tabiiy oʻrganishning imkoniyati boʻlmaydi.

R.M.Boskis eshitish qobiliyati buzilgan bolalarga maktabgacha taʼlim, maktab tizimini yaratishda, farq qiluvchi taʼlimni yaratishda, samarali taʼlim-tarbiya usullarini

yaratishda jonbozlik ko'rsatdi va eshitishdagi nuqsonlarni farqlash bo'yicha pedagogik tasniflash usullarini ishlab chiqdi.

1. Bola eshitish organlarining buzilishi kattalarnikidan ancha farq qiladi. Katta kishilarning eshitishi pasayganda eshitish yordamidagi nutqiy muloqat buziladi. Kichiklik paytdan eshitish qobiliyatini buzilishi psixik tarzda bolaga ta'sir o'tkazadi.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni to'g'ri tushunish uchun ularning nutqni mustaqil ravishda egallash imkoniyatini ham hisobga olish kerak. Eshitish qobiliyatining cheklanishi nutqni to'laqonli egallashga to'sqinlik qiladi. Og'zaki nutqning orqada qolishi yozma nutqning va o'qib tushunish qobiliyatining ham orqada qolishiga va turli sohalarda bilim egallay olmaslikka sabab bo'ladi.
3. Eshitish va nutq o'zaro bog'langan. Birinchidan, eshitish qobiliyatining yo'qolishi nutqning o'sishiga to'sqinlik qiladi; ikkinchidan, eshitishning qay darajada ishlatilishi nutq faoliyatiga bevosita bog'liq. Nutq qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, eshitish qobiliyatidan foydalanish imkoniyati shuncha kengayadi.
4. Eshituv qobiliyatini yo'qotgan bolalar eshituvining pasayishi va nutqiy saviyasiga ko'ra farqlanadi. Nutqning turli saviyada bo'lishi quyidagi omillarga bog'liqdir: a) eshitishining pasayishiga ; b) nuqsonning paydo bo'lishiga; c) eshituv qobiliyatining yo'qolgandan keying psixologik holatlar; d) bolaning alohida xususiyatlariga.

Ko'rsatib o'tilgan omillarning har biri bola nutqini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Eshitish qobiliyati zararlangani sayin, nutq ham shikastlana boradi. Eshitish qobiliyati og'ir darajada pasaygan holda maxsus o'qitishsiz umuman rivojlanmaydi.

Eshitishning pasayishi natijasida oz bo'lsada nutq rivojlangan bo'ladi va bunday bolalar zaif eshituvchilar sirasiga kiradi. Zaif eshituvchi bolalarning nutqiy holati turli holatlarda bo'ladi, ya'ni shivirlash balandligidan nutqni idrok etishdan to'g'ri gaplashish balandligidagi nutqni qabul qilishdagi kamchiliklar bilan ifodalanadi. Nutqiy holatiga ko'ra zaif eshituvchilarning ikki toifasi farqlanadi: birinchi toifadagilar og'ir nutqiy kamchiliklar bilan maktabga keladilar, ularning nutqi alohida so'zlar, noto'g'ri tuzilgan gaplardan iborat bo'lib, grammatik va fonetik tuzilishda ayrim kamchiliklari kuzatiladi. Nutqiy rivojlanish darajasiga ko'ra, Boskis nutqni idrok etish va shakllantirish usullari bilan farqlanadigan ta'lim shartlarini belgilaydi. Ajratilgan bolalar guruhlari uchun alohida maktablar tashkil etiladi: 1. Kar bolalar uchun maxsus maktablar; 2. Zaif eshituvchi va kechroq kar bo'lib qolganlar uchun maktablar. Zaif eshituvchi bolalar maktabi ikki bo'limdan tashkil topadi: birinchi bo'limda nutqi yaxshi rivojlangan bolalar ta'lim olsa, ikkinchi bo'limda nutq nuqsoni og'ir bo'lgan

bolalar tarbiyalanadi. Boskisning psixologik tasnifi eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

**NATIJALAR:** Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqqa o'rgatish maxsus muassasalarning vazifasi hisoblanadi. Mazkur vazifalarni eshitishda nuqsoni bor bolalar maktabida amalga oshirish juda katta qiyinchilik bilan bog'liq hisoblanadi. Karlar maktabi tuzilamsini takomillashtirish, undagi ta'lim muddatini qisqartirish yo'llarini izlash ta'lim jarayonini faollashtirish muammosini va uni hal qilish bolalar nutqini rivojlantirish nutqini rivojlanish rolini ko'rib chiqish zarurligini keltirib chiqardi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi ham o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, bu bolalarning nutqini o'stirish, talaffuzga o'rgatish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina olimlar, jumladan surdopedagogika rus olimlari tomonidan kar bolalar nutqini rivojlantirishning muhim omili 50-60- yillarda tadqiq etila boshladi va talaffuzni o'rgatishning konsentrik usuli Rau va Slezina tomonidan o'rganila boshlandi.

Kommunikativ tizimni mustahkamlash va til o'rganish jarayonini rivojlanishga qaratilgan maktabgacha va o'rta maktab yoshidagi bolalarni qamrab olgan Noskova tadqiqoti bu muammoni hal qilish kerakligini tasdiqladi. Murakkab nuqsonli kar bolalar pedagog oldiga bitta muammo bilan emas, balki bir nechta muammo bilan kelishadi, shuning uchun bunday bolalar uchun ta'lim tizimini murakkablashtirish kerak. Kar bolaning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olib, ularning nutq qobiliyatini rivojlantirish, til tizimini bolalar tomonidan o'zlashtirish nutq jarayonini amaliy o'zlashtirish vaqtida amalga oshiriladi. Nutqni rivojlantirishda to'g'ri yondashish kerak, chunki bu jarayon nafaqat nutq faoliyatini shakllantiradi, balki nutq amaliyotini tashkil etadi va uning o'ziga xos barcha xususiyatlari bilannutq faoliyatini o'rgatishni nazarda tutadi.

Nutq – murakkab ruhiy faoliyat hisoblanib, u ruhiy jarayonlarning tashkil topishiga va bolaning barkamol bo'lib voyaga yetishiga ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari orqali qabul qilinadi va atrofdagilarga taqlid qilish yo'li bilan ham rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning rivojlanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizatori va nutqning harakatini boshqaruvchi analizatori ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizatori eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi. Eshituv analizatorining rivojlanish darajasi ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq.

P.M.Boskis o'zining “Uchitelyu o detyax s narusheniyami sluxa” nomli kitobida nutqning rivojlanishida eshitishning ahamiyati, bolalarning eshitish qobiliyatini tekshirish yo'llari, zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish metodikalarini keng tarzda yoritib bergan.

S.A.Zikovning “Metodika obucheniya gluxix detey yaziku” o‘quv qo‘llanmasi esa kar bolalar maktabida nutqning ahamiyati, tilga o‘qitish prinsiplari, daktil nutqini o‘rgatish metodlari va bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirish yo‘llari yozilgan. F.F.Pay “Ustnaya rech gluxix” kitobida esa sog‘lom va eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘zaro taqqoslab, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini va nutq mexanizmlarini yoritib bergan. Daktil nutqining kar bolalar ta‘lim-tarbiyasida keng qo‘llanilishi adabiyotlarda ko‘p aytib o‘tiladi.

E.P.Kuzmichyovo “Razvitiye recheho sluxa u gluxux” deb nomlangan asarida eshitish qobiliyatini biz karlar nutqiy faoliyatiga ta‘sir qiluvchi va shu nutqiy faoliyat imkoniyatlaridan biri sifatida ko‘rib chiqamiz deb yozadi.

*Kar bolalarni o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish*

Kar bolalar ham sog‘lom tengdoshlari kabi jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga haqli ekanligini hisobga olib, ular uchun kerakli ta‘lim-tarbiya sharoitlarini yaratib berish muhim hisoblanadi.

Kar bolalarda internetdan foydalanishning ham keng imkoniyatlari mavjud.

1. Internetdagi multimediali materiallardan foydalanish uchun oldin o‘qituvchining o‘zi tayyorgarlik ko‘rishi kerak, jumladan, mavzu yuzasidan o‘quv materiallarini izlab topish va kompyuter xotirasiga joylashtirish mazmuni va hajmini aniqlash kabi ishlarni bajarish zarur;
2. Kar bolalarning pedagog-o‘qituvchilari o‘z sohalari bo‘yicha teleanjumalarda qatnashishlari mumkin. Buning uchun kar bolalarning ta‘lim jarayoniga bog‘liq yangiliklar yoki ish-tajribasi bo‘yicha multimediyaga asoslangan maqola tayyorlan teleanjuan saytiga joylashtiradi.
3. Eshitish qobiliyati yo‘qolgan bolalarning ta‘lim saviyasini oshirish maqsadida boshqa hudud yoki maktabdagi shunday bolalar o‘rtasida musobaqalar tashkil etish imkoniyati mavjud.
4. Hozirgi kunda oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida foydalanish uchun qator o‘quv darsliklar va qo‘llanmalar yaratilgan. Shunday multimediali elektron adabiyotlarni kar va zaif eshituvchi bolalar uchun tayyorlab internetga joylashtirish mumkin. Masalan, kar bolalarga mos “G‘uncha”ga o‘xshash adabiyotlar internetga joylansa, kar bolalar ulardan ta‘lim-tarbiya jarayonida bimalol foydalana oladi.
5. Kar bolalar maktab internatlarida pedagog o‘qituvchilar ish faoliyatlari jarayonida tayyorlaga multimediali materiallarni internetga joylashtirsalar boshqa shu soha pedagoglari uchun foydada holi bo‘lmas edi.

**MUHOKAMA:** Butunjahon karlar federatsiyasi ma‘lumotiga ko‘ra, ddunyoda qariyb 72 million EICH(eshitish imkoniyati cheklangan) odam bor. Norasmiy



statistikaga ko'ra, O'zbekistonda 23 mingdan ortiq eshitish imkoniyati cheklangan fuqaro mavjud. Davlat statistika qo'mitasi bu bo'yicha aniq hisobot bo'yicha aniq hisobot yuritmaydi. Shu bois, EICHLarni 16 yoshdan ro'yxatga oluvchi O'zbekiston karlar jamiyati (O'zKJ), Maktabgacha ta'lim vazirligi va Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlariga tayanishga majburmiz.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sonining keskin oshib borishi va ularda paydo bo'ladigan emotsional hislar mazkur soha bo'yicha ko'plab olimlarni tadqiqot qilishga undaydi.

T.M.Xarlamovanning "Oila koxlear implantlari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishining omili sifatida" mavzusidagi ilmiy tadqiqotida ota-onalarning bola bilan munosabatlaridagi emotsional holatlarining ta'sirini va bu ta'sir orqali bolaning rivojlanish jarayonini rivojlanish omili sifatida ko'rib chiqadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalar va ota-onalarning nazorat guruhlarida bolaning hissiy rivojlanish darajasi, xususan, "his-tuyg'ularni tushunish" ko'rsatkichi ota-onalarning hissiy intellekti bog'liqligi aniqlangan.

J.Stivensonning "Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar va o'smirladagi hissiy va xatti-harakatlardagi qiyinchiliklar tizimli tahlil va meta-tahlil" mavzusidagi tadqiqotida eshitish qobiliyati buzilgan bolalar va o'smirlar normal eshitadigan bolalarga nisbatan hissiy va xulq-atvorda qiyinchilikka ko'proq uchrashlari aytib o'tilgan.

**XULOSA:** Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsini mahalliy va xorijiy tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki, xorijiy tadqiqotlarda og'zaki nutqning rivojlanish darajasi aqliy qobiliyatning ham rivojlanishiga ta'siri va oiladagi eshitish nuqsoni bo'lgan bolaning hissiy aurasini va shaxsiyati rivojlanishidagi ahamiyatiga ko'proq e'tibor berilgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa ko'pincha ta'lim tizmiga e'tibor qaratiladi. Umuman olganda, kar bolalarning oilasi bilan bo'lgan muloqatlarning passiv ishtirokchisi bo'lishi ularning hissiy, aqliy va xulq-atvor buzilishiga olib keladi. Xususan, hissiy jihatdan barqaror odam o'quv dasturini yaxshiroq o'zlashtiradi, atrofidagi odamlar bilan yaxshi munosabatga kirisha oladi va jamiyatning aktiv a'zosi bo'loladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Surdopedagogika>
2. Murakkab nuqsonli kar bolalarda nutqni rivojlantirishning psixologik-pedagogik, psixolingvistik asoslari. Muzaffarova Xayitgul Nesibovna, Erxonova Shaxnoza.
3. <https://arxiv.uz/uz/documents/diplom-ishlar/pedagogika-psixologiya/eshitishda-nuqsoni-bo-lgan-bolalarni/bolalarni-maktab-ta-limiga-tayyorlashning-samarali-yollari>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/eshitishda-nuqsoni-bo-lgan-bolalarni-tadqiqotlarda-o-rganilishi/viewer>
5. “Ta’limda kreativ yondashuv yo‘llarini rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzudagi Respublika ilmiy-amaliy On Line konferensiyasi materiallari. Jizzax 2021-yil.
6. Maxsus pedagogika. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. 2-nashr. “NOSHIR” Toshkent-2016.